

UO'K: 619: 616-006.03.616-006.04 617.51.

**ITLARDA UCHRAYDIGAN OG'IZ BO'SHLIG'I O'SMALARINING
TARQALISHI, ETIOPATOGENEZI VA KLINIK BELGILARI**

Yulchiyev J.B. - ilmiy rahbar,

Toirov D.P. - magistrant

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada itlar orasida keng tarqalgan og'iz bo'shligi o'smalarining itlar orasida tarqalish darajasi, kelib chiqish sabablari va klinik belgilari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Og'iz bo'shlig'i o'smalari, onkoviruslar, yassi hujayrali karsinoma, melanoma, xavfli va xavfsiz o'smalar, metastaz, biopsiya.

Kirish. Itlar orasida onkologik kasalliklarning tarqalish tendensiyasi so'nggi o'n yillikda hamda yildan-yilga ortib borayotgani soha mutaxassilari oldiga ulkan vazifalarni yuklamoqda. Shu munosabat bilan bu borada veterinariya onkologlari tomonidan juda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Itlar orasida onkologik kasalliklar ichida og'iz bo'shlig'i o'smalari keng tarqalib, mutaxassilarning ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda barcha onkologik kasalliklarning 6-7% foizini tashlik etmoqda [1]. Itlardagi og'iz bo'shlig'ineng eng keng tarqalgan xavfli o'smalariga melanoma, yassi hujayrali karsinoma va fibrosarkoma kiradi [3]. Mushuklarda og'iz bo'shlig'ineng xavfli o'smalarining 69% yassi hujayrali karsinomalar va 18% fibrosarkomalardir [4]. Ushbu hayvonlarda ko'rish mumkin bo'lgan boshqa og'iz bo'shlig'i o'smalari turlari orasida osteosarkoma, akantomatoz ameloblastoma va periferik odontogen fibromalar kiradi [1]. Og'iz bo'shlig'i o'smalari davolash bo'yicha eng murakkab, tez va progressiv o'sishi, atrof to'qimalarini zararlashi hamda ko'proq xavfli o'sma sifatida rivojlangani uchun kasal hayvonlarning nobud bo'lishiga olib kelayotgani ushbu muammoning onkologiya klinik amaliyotida dolzarb sanaladi.

Itlarning og'iz bo'shlig'i o'smalari ko'pincha kasallikning kech davrlarida aniqlanadi, bunda ijobiy natijalar uchun ko'pincha yordamchi kimyoterapiya yoki radioterapiya bilan birgalikda radikal operatsiyalarni talab qiladi. Odamning og'iz bo'shlig'i saratoni bo'yicha keng qamrovli tahliliy va epidemiologik ishlar olib borilgan bo'lsa-da, veterinariya tibbiyotida tadqiqotlar yetishmayapti. Ushbu tadqiqotlar kasallikni skrining qilish tadbirlarini yaxshilash orqali erta aniqlashni kuchaytirish uchun itning og'iz bo'shlig'i o'smalari bilan bog'liq tarqalishini o'rganish va xavf omillarini baholashga qaratilgan [2].

Itlarda og'iz bo'shlig'i o'smalarining tarqalishi. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, og'iz bo'shlig'i o'smasi bilan kasallangan 526 bosh itlar orasidan 118 boshida xavfsiz o'smalar va 408 boshida xavfli o'smalar rivojlanganligi aniqlangan. Eng ko'p uchraydigan xavfsiz o'smalar akantomatoz ameloblastoma bo'lib, u 43.22% ni tashkil etgan, eng keng tarqalgan xavfli o'sma esa melanoma bo'lib, u 51.23% ni tashkil qilgan [3]. Og'iz bo'shlig'ida xavfsiz va xavfli o'smalar

o'sadigan eng ma'qul joy milk bo'lib, ular mos ravishda 89.83% va 63.73% holatlarda uchragan. Melanoma, yassi hujayrali karsinoma va fibrosarkoma asosan itlarning milkida joylashgan bo'lsa, osteosarkoma ko'pincha pastki jag' sohasida aniqlangan. Ko'pgina o'smalar III-bosqich sifatida tasniflangan bo'lib, ular 46.84% dan 74.58% gacha bo'lган diapazonda uchragan. Hisobot berilgan holatlardan 56.08% erkak, 43.92% urg'ochi itlar og'iz bo'shlig'i o'smalari bilan kasallangan. Eng keng tarqalgan zot aralash zotli (30.41%) bo'lib, undan keyin Pudel (14.25%) va Shi Tzu (11.40%) it zotlarida kuzatilgan. Bundan tashqari, xavfli og'iz bo'shlig'i o'smalari bilan kasallangan kasal itlarning o'rtacha yoshi 11.6 ± 3.1 yil, xavfsiz o'smalar rivojlangan itlarning yoshi o'rtacha 8.9 ± 3.4 yilni tashkil etdi [3].

Itlarda og'iz bo'shlig'i o'smalarining kelib chiqish sabablari. Itlarda og'iz bo'shlig'i o'smalari turli omillar ta'sirida rivojlanishi mumkin. Kasallikning etiologiyasi ko'p jihatdan kompleks bo'lib, genetik, ekologik va biologik omillar bilan bog'liq. Quyida asosiy sabablar keltirilgan:

Genetik moyillik: Ba'zi it zotlari og'iz o'smalariga ko'proq moyil bo'lib, bu kasallikning rivojlanishida genetik omillar muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Masalan melanoma o'smasi Skotish terrier, Labrador retriever, Kokker spaniel zotlari orasida keng tarqalgan. Yassi hujayrali karsinoma esa Shetland Sheepdog va Basset Hound zotlarida ko'proq uchraydi. Fibrosarkoma yirik zotli itlarda, ayniqsa Labrador retriever zotlarida kuzatiladi.

Yosh va jins omili: Yoshi katta itlarda (ayniqsa 10 yoshdan oshganlarda) xavfli o'smalar rivojlanishi yuqori bo'ladi. Ba'zi tadqiqotlar erkak itlarda og'iz o'smalari ko'proq uchrashini ko'rsatadi, lekin bu farq katta emas.

Ekologik va hayot tarzi omillari: Tamaki tutuni ta'sirida, ya'ni surunkali ravishda it egalarining passiv chekishi ularning uy hayvonlari xususan itlarda o'sma rivojlanish xavfini oshirishi mumkin. Ultrabinafsha nurlanish och pigmentli yoki rangsiz shilliq qavatga ega bo'lган itlarda yassi hujayrali karsinoma rivojlanishi bilan bog'liq. Kimyoviy moddalardan pestitsidlar, gerbitsidlar va boshqa toksik moddalar ta'siri o'sma rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Surunkali yallig'lanish va og'iz bo'shlig'i jarohatlari: davomli yallig'lanish jarayonlari (masalan, periodontit – milk kasalliklari) shilliq qavatni o'zgartirib, o'sma rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Og'iz shikastlanishlari – Notekis tishlash (malokklyuziya), siniq tishlar yoki tishga go'shti tiqilib qolgan begona jismlar o'sma rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Virus va infeksiyalar: Papillomavirus infektsiyasi itlarda yassi hujayrali karsinoma bilan bog'liq bo'lishi mumkin, lekin bu hali to'liq isbotlanmagan. Bakterial infektsiyalar og'iz bo'shlig'idagi surunkali bakterial infeksiyalar doimiy yallig'lanish chaqirib, o'sma rivojlanishini rag'batlantirishi mumkin.

Gormonal ta'sir: Itlarda gormonlarning o'sma rivojlanishiga ta'siri hali to'liq o'rganilmagan, lekin ayrim gormonga bog'liq to'qimalarda bunday omil bo'lishi mumkin.

Itlarda og'iz bo'shlig'i o'smalarining kelib chiqishi ko'p jihatdan irsiy moyillik, ekologik omillar, yallig'lanish jarayonlari va infeksiyalar bilan bog'liq. Vaqtida tashxis qo'yish va profilaktik choralar, masalan, yaxshi og'iz gigiyenasi va zararli omillardan qochish, ushbu kasallik xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Itlarda og'iz bo'shlig'i o'smalarining klinik belgilari. Itlarda og'iz bo'shlig'i o'smalarini klinik jihatdan turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Ularning belgilari o'smaning turi, joylashuvi va rivojlanish bosqichiga bog'liq. Quyida og'iz bo'shlig'ineng eng ko'p uchraydigan xavfli (yomon sifatli) o'smalarining klinik belgilari keltirilgan.

O'smaga xos umumiy klinik belgilari: og'izdan yomon hid kelishi (halitoz) – infeksiya yoki to'qimalarning nekrozi sababli, og'riq va bezovtalik – ayniqsa, ovqatlanish yoki chaynash paytida, tishlarning siljishi yoki tushishi – o'sma suyakni yemirishi tufayli, og'iz bo'shlig'ida qon ketishi – o'sma qon tomirlariga zarar yetkazishi natijasida, og'izning bir tomonlama shishishi yoki deformatsiyasi – suyak to'qimalari zararlanganda, tuzilishi notekis yoki yarali massa – ko'pincha milklar, til yoki tanglayda paydo bo'ladi. Oziqlanish qiyinlashuvi (dizfagiya) va yo'tal – o'sma ovqat o'tish yo'liga ta'sir qilganda.



1-rasm. Itlarda uchraydigan og'iz bo'shlig'i o'smalarini. A- yuqorigi jag' fibrosarkomasi; B-Pastki jag' yassi hujayrali karsinomasi; C- yuqorigi jag' akantomatoz ameloblastomasi; D- og'iz shilliq qavati amelanotik melanomasi.

O'sma turlariga qarab klinik belgilar:

Xavfli melanomada qora yoki och rangli massa – aksariyat hollarda milk, lab, yonoq shilliq qavati, til, yoki tanglayda joylashadi. Tez o'sish va metastaz berish xususiyati – limfa tugunlari va o'pka metastazlari kuzatilishi mumkin. Nekrotik yoki qon ketuvchi joylar – katta hajmli o'smalar qon ta'minoti yetishmovchiligi tufayli nekrozga uchraydi. Suyak shikastlanishi – radiografiya (rentgen) orqali aniqlanadi.

Yassi hujayrali karsinomada nosimmetrik, kattalashib boruvchi, qattiq yoki yumshoq o'sma – ko'pincha milk, til, yoki tanglay sohalarida, chuqur yaralar yoki eroziyalar – infeksiya bilan asoratlanishi mumkin. Suyakning invaziv yemirilishi – og'riq va tishlarning tushishiga sabab bo'ladi. Metastaz darajasi melanoma bilan solishtirganda pastroq, lekin mahalliy invaziya kuchli.

Fibrosarkomada tashqi tomondan ko'rinishi nisbatan yumshoq, lekin juda invaziv – operatsiyadan keyin ham qaytalanish ehtimoli yuqori bo'lgan qattiq, tekis yoki tugunli massa asosan milk, lab, yoki tanglay sohalarida o'sadi. Nisbatan pastki jag' o'smasida metastaz xavfi, lekin keng hududni qoplash xususiyatiga ega. Sekin o'suvchi lekin chuqur ildiz otuvchi xususiyatga ega.

O'sma o'sish bosqichiga qarab qo'shimcha belgilar: O'sma o'sishining boshlang'ich bosqichida yengil shish, halitoz, og'izda mayda o'zgarishlar kuzatiladi. O'rta bosqichda katta hajmdagi o'sma, qon ketishi, og'riq, suyakning yemirilishi kuzatilsa, oxirgi bosqichlarda esa og'iz bo'shlig'ining patologik o'choqlarida chuqur yaralar, suyak deformatsiyasi, metastaz belgilari (nafas qisilishi, ishtahaning pasayishi, umumiy holsizlik) kuzatiladi.

Itlarda og'iz bo'shlig'i o'smalari dastlab mayda o'zgarishlar bilan boshlanib, vaqt o'tishi bilan jiddiy klinik belgilarga olib kelishi mumkin. Vaqtida tashxis qo'yish uchun biopsiya va vizual tekshiruv muhim sanaladi. Agar itda yuqoridagi belgililar kuzatilsa, darhol veterinarga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Xulosa.

1. Itlar orasida og'iz bo'shlig'i o'smalari o'rtacha 6-7% ni tashkil etib shundan 52,4% xavfli o'smalar, 43,6 % esa xavfsiz o'smalar guruhiga kiradi.
2. Kasallikning asosiy klinik belgisi sifatida og'izdan yomon hid kelishi (halitoz), og'riq va bezovtalik, tishlarning siljishi yoki tushishi, og'iz bo'shlig'ida qon ketishi, og'izning bir tomonlama shishishi yoki, tuzilishi notekis yoki yarali massa – ko'pincha milklar, til yoki tanglayda paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.
3. Kasallik poietiologik kasalliklar qatoriga kirib, irsiy moyillik, ekologik omillar, yallig'lanish jarayonlari va infeksiyalar bilan bog'liq ravishda rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cray M, Selmic LE, Ruple A. Demographics of dogs and cats with oral tumors presenting to teaching hospitals: 1996-2017. J Vet Sci. 2020 Sep;21(5):e70. doi: 10.4142/jvs.2020.21.e70. PMID: 33016017; PMCID: PMC7533385.
2. Tipirneni Y, Soltero-Rivera M, Blandino A, Goldschmidt S. Understanding canine oral neoplasia: intrinsic rather than extrinsic features represent key risk factors in a 39-year analysis. J Am Vet Med Assoc. 2024 Dec 6:1-9. doi: 10.2460/javma.24.09.0594. Epub ahead of print. PMID: 39642465.

3. Satthathum C, Srisampane S, Jariyarangsirattana P, Anusorn P, Sattasathuchana P, Thengchaisri N. Characteristics of canine oral tumors: Insights into prevalence, types, and lesion distribution. *J Adv Vet Anim Res.* 2023 Sep 30;10(3):554-562. doi: 10.5455/javar.2023. j709. PMID: 37969809; PMCID: PMC10636079.
4. de Carvalho JP, Carrilho MC, Dos Anjos DS, Hernandez CD, Sichero L, Dagli MLZ. Unraveling the Risk Factors and Etiology of the Canine Oral Mucosal Melanoma: Results of an Epidemiological Questionnaire, Oral Microbiome Analysis and Investigation of Papillomavirus Infection. *Cancers (Basel).* 2022 Jul 13;14(14):3397. doi: 10.3390/cancers14143397. PMID: 35884456; PMCID: PMC9316277.
5. Herring ES, Smith MM, Robertson JL. Lymph node staging of oral and maxillofacial neoplasms in 31 dogs and cats. *J Vet Dent.* 2002;19(3):122-126. doi: 10.1177/08987564020190030
6. Nicola M. Parry, BVSc, MRCVS, MSc, DACVP, ELS AVMA 2017: Managing Oral Tumors in Dogs, December 15, 2017
7. Yulchiyev J. et al. Comparing of some treatment methods of canine oral papilloma in Samarkand condition (71 cases) //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 126. – С. 01014.